

*Sh.To'rayev, N.Jamolova, N.Xusanova, A.Madraximov,
Z.O'lmasxo'jayev, K.To'rayev*

**DAVLAT TASHKILOTLARIDA
MA'NAViy-MA'RIFIY ISHLARNI
TASHKIL QILISH**
(metodik qo'llanma)

TOSHKENT-2023

UO‘K 581.52.581.9

**Sh.To‘rayev, N.Jamolova, N.Xusanova, A.Madraximov,
Z.O‘lmasxo‘jayev, K.To‘rayev.**

Davlat tashkilotlarida ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni tashkil qilish
[Matn] /Sh.To‘rayev va boshqalar. – Toshkent: «MERIT PRINT»,
2023. – 41 b.

Qo‘llanma davlat tashkilotlarida ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni tashkil qilish yuzasidan tavsiyalar shaklida bo‘lib, unda targ‘ibotning zamonaviy usullari, tadbir samaradorligi mezonlari, milliy g‘oyani targ‘ib qilish, mafkuraviy immunitetni shakllantirish bilan bog‘liq masalalarga ilmiy-amaliy yondoshilgan. Bu esa, odamlar ongiga tez va soz kirib borishni ta‘minlaydi. Xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz orasida mafkuraviy immunitetni shakllantirishga, ma‘naviyatni yuksaltirishga xizmat qiladi.

Mazkur qo‘llanma barcha rahbar xodimlar, davlat tashkilotlarining ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha mas‘ullari, yetakchilar, ma‘naviyat targ‘ibotchilari, mutaxassislar va keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.

Mas‘ul muharrir: Filologiya fanlari nomzodi O.Davlatov

Taqrizchilar: F.f.d., prof. B.To‘ychiyev

©Sh.To‘rayev
© MERIT PRINT
© Toshkent, 2023

MUNDARIJA

Ma'naviyat – jamiyatdagi barcha siyosiy ijtimoiy munosabatlarning mazmuni	10
Jamoatchilik fikrini o'rganishda foydalaniladigan sotsiologik tadqiqot usullari (Kuzatish, anketa, intervyu, sotsiometriya)	14
Notiq ma'ruza tayyorlashda nimalarga e'tibor berishi kerak? Notqlik va nutq so'zlash odobi.....	21
Tinglovchilar nimaga qiziqadi?	25
Targ'ibotchi va davlat idoralarida faoliyat ko'rsatadigan xodimlarning kiyinish madaniyati bo'yicha tavsiyalar	26
XULOSA	40

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING QARORI

MA’NAVIY-MA’RIFIY ISHLAR TIZIMINI TUBDAN TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va bunyodkorlik ishlari natijasida xalqimizning ongu tafakkuri, dunyoqarashi o‘zgarmoqda. Yurtimizda huquqiy davlat, fuqarolik jamiyatini barpo etishda “Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari” degan hayotbaxsh g‘oyaning ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Bu borada olib borilayotgan muhim ishlarga qaramasdan, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalaridagi yangilanishlar jarayonida ma’naviy-ma’rifiy islohotlarning samaradorligiga to‘siq bo‘layotgan bir qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda.

Xususan, ma’naviy-ma’rifiy jarayonlarni tashkil etishda yaxlit tizim mavjud emas, xalqimiz, ayniqsa yoshlarni ma’naviy tahdidlardan himoya qilish borasida yetarli darajada tashkiliy-amaliy va ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmayapti, ushbu yo‘nalishda davlat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari hamda xususiy sektorning ijtimoiy hamkorligi samarali yo‘lga qo‘yilmagan.

Mavjud muammolarni hal etish, ma’naviy-ma’rifiy ishlarning samarasi va ta’sirchanligini oshirish, ko‘lami va miqyosini yanada kengaytirish, mamlakat aholisi, avvalo, yoshlar qalbida amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik hissini kuchaytirish, sohadagi ishlarni muvofiqlashtirishning yagona tizimini yaratish maqsadida:

1. Quyidagilar ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari etib belgilansin:

ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan “Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari” g‘oyasini keng targ‘ib etish orqali jamiyatda sog‘lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish;

oila, ta’lim tashkilotlari va mahallalarda ma’naviy tarbiyaning uzviyligini ta’minlash;

*Sh.To‘rayev, N.Jamolova, N.Xusanova, A.Madraximov,
Z.O‘lmasxo‘jayev, K.To‘rayev*

DAVLAT TASHKILOTLARIDA MA’NAVIY-MA’RIFIY ISHLARNI TASHKIL QILISH (metodik qo‘llanma)

Noshir: Zayniyev F.

Muharrir: Axmedova M.

Dizayner: Zayniyev M.

Kompyuterda tayyorlovchi: Shodmonov S.

Nashriyot litsenziya raqami № 005073-06 08.02.2016 y.
«MERIT PRINT» nashriyoti

100000, Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani,
Sh.Rustaveli ko‘chasi 91-uy
Tel.: +998 90 000 06 63

Bosishga 07.12.2023-yilda ruxsat etildi. Bichimi 84x108. 1/16
«Times New Roman» garniturasida. Ofset bosma usulida bosildi.
Shartli bosma tabog‘i 2,5, Buyurtma № 45
Adadi 500 nusxa.

XULOSA

Bugungi dunyoning turli hududlarida kechayotgan tahlikali voqealar insoniyatni tanazzulga yetaklab borishi mumkinligini, agar o'z vaqtida anglab, unga qarshi kurashilmasa insoniyat tarixida mudhish voqealar sodir bo'lishi mumkinligini ko'rsatmoqda.

Shukrki, biz tinch xotirjam hayot kechirmoqdamiz. Mamlakatimizda xalq farovonligi uchun hamma imkoniyatlar yaratilgan. Eng muhimi, yurtimizda tinchlik hukmron. Lekin, bu beparvolikka berilishimiz mumkin degani emas. Bugun o'zini, o'zligini anglagan har bir inson ogoh bo'lishi, har qanday tahdidlarga qarshi tayyor turishi lozim. Buni menga dahli yo'q. Bu mendan ancha uzoqda deyishga hech kimning haqqi yo'q. Binobarin, ana shu tinchlikni buzish uchun fursat poylab turganlarning son-sanog'i yo'q. Agar jim qarab turaversak boshimizga shunday tashvishlar yog'dirishadiki, uni to'xtatib ham, to'g'rilab ham bo'lmaydi.

Istiqloq yillari mamlakatimizda qaror topgan tinch va osuda hayot, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalarda erishilgan ulkan yutuq va natijalarga, barqaror va farovon turmushimizga xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan turli xil mafkuraviy harakatlarga qarshi izchil kurash olib borish, bu boradagi ishlarni yanada takomillashtirish Respublika Ma'naviyat va ma'rifat Kengashining doimiy diqqat markazida bo'lmoqda. Kengashning bevosita rahbarligida amaliy faoliyat olib boradigan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi va Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti tomonidan jamiyatimiz ma'naviy-ma'rifiy hayotini izchil yo'lga qo'yish, aholi o'rtasida o'tkazilayotgan targ'ibot-tashviqot tadbirlarini sifat jihatdan yuqori darajaga ko'tarish borasida muayyan sa'y-harakatlarni amalga oshirmoqda.

Endigi vazifa bu boradagi ishlarni yanada takomillashtirish hamda fuqarolarimizni zamonaviy usul va uslublar bilan qurollantirishdir.

targ'ibot-tashviqot va tarbiya yo'nalishidagi ishlarni ilmiy asosda tashkil etish, soha bo'yicha ilmiy va uslubiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish, ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan doimiy monitoring tizimini joriy qilish;

el-yurt taqdiriga loqaydlik, mahalliychilik, urug'-aymoqchilik, korrupsiya, oilaviy qadriyatlarga bepisandlik va yoshlar tarbiyasiga mas'uliyatsizlik kabi illatlarga barham berishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;

aholining Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanish madaniyatini oshirish, g'oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetini kuchaytirish;

madaniyat, adabiyot, kino, teatr, musiqa va san'atning barcha turlari, noshirlik-matbaa mahsulotlari, ommaviy axborot vositalarida ma'naviy-axloqiy mezonlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarining ustuvorligiga erishish;

geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarni muntazam o'rganish, terrorism, ekstremizm, aqidaparastlik, odam savdosi, narkobiznes va boshqa xatarli tahdidlarga qarshi samarali g'oyaviy kurash olib borish hamda bu borada xalqaro hamkorlik aloqalarini rivojlantirish.

2. Quyidagilar Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining (keyingi o'rinlarda — Markaz) qo'shimcha vazifalari etib belgilanishi ma'lumot uchun qabul qilinsin:

a) davlat organlari va nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlik yo'nalishida:

mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlarning asosiy yo'nalishlari bo'yicha davlat organlari, nodavlat tashkilotlar va ishchi (ekspert) guruhlarining bu boradagi faoliyatini muvofiqlashtirish;

milliy manfaatlarimizga, hayot tarzimizga zid bo'lgan zararli g'oyalar va ma'naviy tahdidlarning mohiyatini va aholining turli qatlamlariga ta'sirini o'rganib borish;

yoshlarimiz ongiga salbiy ta'sir etuvchi, ularni g'oyaviy jihatdan qaram etishga yo'naltirilgan harakatlarga qarshi samarali kurash olib borish hamda irodali, fidoyi, vatanparvar va o'z mustaqil fikriga ega

avlodni tarbiyalash bo'yicha amaliy chora-tadbirlar dasturlarini ishlab chiqish;

davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari, keng ko'lamli islohotlarning mohiyati, qabul qilingan qonun hujjatlari va davlat dasturlarining ahamiyatini keng jamoatchilikka yetkazish bo'yicha davlat va jamoat tashkilotlari uchun tegishli tavsiya va takliflar tayyorlash;

b) ilmiy-tadqiqot yo'nalishida:

ma'naviy-ma'rifiy ishlarni amalga oshirishning samarali va ta'sirchan targ'ibot texnologiyalari hamda usullarini ishlab chiqish;

ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarni tashkil etishga doir xorijiy tajribani o'rganish, shuningdek, bugungi mafkuraviy jarayonlarni ilmiy-amaliy jihatdan atroflicha tahlil qilish va baholash;

maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta, o'rta maxsus va oliy ta'lim tizimi, mahalla va boshqa tuzilmalar kesimida ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarning monitoringini olib borish, aniqlangan muammolarni hal etish bo'yicha ilmiy asoslangan tarbiya texnologiyalari, taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

ma'naviy tarbiya va ijtimoiy-gumanitar fanlar bo'yicha fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlarni tashkil etish, ularning natijalari amaliyotga tatbiq qilinishini muvofiqlashtirish;

v) targ'ibot-tashviqot yo'nalishida:

ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan milliy g'oya targ'iboti, ma'naviy-ma'rifiy ishlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilash;

sohalar va hududlarning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, aniq maqsadga yo'naltirilgan targ'ibot-tashviqot dasturlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirish;

aholi, ayniqsa, yoshlarni islom dini va falsafasiga, boshqa diniy konfessiyalarga nisbatan hurmat-ehtirom va bag'rikenglik ruhida tarbiyalash, millatlararo totuvlik va o'zaro mehr-oqibat muhitini yanada mustahkamlash bo'yicha ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni amalga oshirish.

3. Markazning ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-ijtimoiy mavzulardagi dolzarb maqolalar, jamoatchilik vakillarining ilg'or fikrlari, shuningdek, mafkuraviy jarayonlar tahlili, sohaga oid yangiliklarni to'plash,

mutaxassislarini jalb etishda qiyinchiliklar tug'ilgani sababli tadbirlarni tashkil etish uzoq muddatga surilib ketdi.

Tashkilot rahbari bu turdagi masala bilan avval shug'ullanmaganligi va tajribasi yetarli emasligi sababli topshiriqni ijobiy hal eta olmadi.

Nima uchun tashkilot rahbari bu ishni hal qila olmadi?

Vaziyatni hal qilish uchun qanday yo'l tutish kerak?

Javob: Avvalo topshiriq mazmuni to'laonli tushunish lozim, so'ngra topshiriqqa muvofiq Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining hududiy bo'lim va bo'linmalariga murojaat qilishi masalaga yechim bo'la oladi.

Test javoblari

Test	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15
Javoblar	S	D	A	D	D	D	A	S	A	D	D	A	D	D	A

5-variant

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-mart “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5040-son qarori mazmun va mohiyati.

2. Sotsiologik so‘rovlar o‘tkazishga qo‘yiladigan axloqiy (etika) talablar.

3. Targ‘ibotchi va davlat idoralarida faoliyat ko‘rsatadigan xodimlarning tashqi ko‘rinishiga qo‘yiladigan asosiy talablar.

1-keys.

Davlat tashkilotiga tashrif buyurgan fuqaro tomonidan tashkilot rahbariga e‘tiroz kelib tushdi. E‘tiroz mazmuniga ko‘ra xodimlarning tashrif buyuruvchi fuqarolarga nisbatan befarqlik, murojaat yuzasidan sansalorlik va kasb etikasi, muomala madaniyati yo‘qligi bayon qilingan.

Bunday vaziyatda tashkilot rahbari qanday yo‘l tutgani ma‘qul? Ushbu holatni kelib chiqish sababi qanday? Kelgusida shu kabi muammolarni kelib chiqmasligi uchun qanday choralar ko‘rish lozim?

Javob: Avvalo tashkilot rahbari tomonidan bu boradagi mas‘ul xodimlarni chaqirgan holda amaliy ishlarni rejasini tuzish lozim. Unga muvofiq tashkilotning ma’naviy-ma’rifiy muhitini yaxshilash hamda xodimlarning kasb etikasi va muomala madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiluvchi ishlarni belgilashi kerak.

Bu borada dastlabki qadam sifatida turli metodlar (kuzatish, anketa, intervyu, sotsiometriya)dan foydalangan holda jamoatchilik fikri o‘rganiladi. Natijalar bo‘yicha aniq chora-tadbirlar belgilanadi hamda xodimlarni malaka oshirish o‘quvlarini tashkil etish talab etiladi. Hamkor sifatida Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar institutini keltirish mumkin.

2-keys.

Yuqori turuvchi tashkilot tomonidan tashkilot xodimlarini ma’naviy jarayonlarga jalb qilish, ularda yuksak ma’naviyatni shakllantirish uchun ma’ruzalar tashkil qilish belgilandi. Soha

tayyorlash va tarqatish maqsadida “oyina.uz” elektron portalini tashkil etish tashabbusi qo‘llab-quvvatlansin.

Portal faoliyatini yo‘lga qo‘yish uchun Markazga qo‘shimcha 15 ta shtat birligi ajratilsin va uning tuzilmasida Raqamli targ‘ibot bo‘limi tashkil etilsin.

Markaz Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi bilan birgalikda ikki oy muddatda portalni ishga tushirish choralari ko‘rsin.

4. Markazning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bo‘limlariga qo‘shimcha 2 tadan, tuman (shahar) bo‘linmalariga aholi soni 200 mingdan ortiq bo‘lganda 2 tadan, 200 mingdan kam bo‘lgan taqdirda esa 1 tadan qo‘shimcha shtat birliklari ajratilsin.

Belgilansinki, mazkur shtat birliklari mahalliy budjet hisobidan moliyalashtiriladi.

5. Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining:

“Ma’naviyat targ‘ibotchisi” ta‘lim muassasasi negizida Markaz huzurida Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar institutini tashkil etish;

“Tafakkur” va “Ma’naviy hayot” jurnallari hamda “Ma’naviyat” nashriyotini Markaz tasarrufiga o‘tkazish to‘g‘risidagi takliflari ma’qullansin.

“Ma’naviyat” nashriyoti faoliyatini qo‘llab-quvvatlash uchun asoslangan hisob-kitoblarga muvofiq Ma’naviyat va ijodni qo‘llab-quvvatlash maqsadli jamg‘armasi hisobidan bir oy muddatda 1 milliard so‘m miqdorida mablag‘ ajratilsin.

6. Quyidagilar:

Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining tarkibi [1-ilovaga](#) muvofiq;

Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining tashkiliy tuzilmasi [2-ilovaga](#) muvofiq;

Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining tuzilmasi [3-ilovaga](#) muvofiq;

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bo'limlari namunaviy tuzilmalari [4-ilovaga](#) muvofiq;

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining tuman (shahar) bo'linmalarining namunaviy tuzilmalari [5-ilovaga](#) muvofiq;

Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini yanada oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi" [6-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

7. Ta'lim tashkilotlarida madaniy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha quyidagi tartib joriy etilsinki, unga ko'ra:

har bir umumta'lim muassasasida joriy etilgan ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchi lavozimini moliyalashtirish uchun 2021-yil 1-apreldan boshlab davlat budjeti mablag'lari hisobidan 0,5 shtat birligi ajratiladi hamda uning ish haqi miqdori umumta'lim muassasasi oliy ma'lumotli o'qituvchisi uchun o'rnatilgan bazaviy tarif stavkasi miqdorida belgilanadi;

davlat oliy ta'lim muassasalari va ularning filiallarida, talabalar sonidan qat'iy nazar, yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor (direktorning birinchi o'rinbosari) lavozimi joriy etiladi. Bunda, oliy ta'lim muassasalarida mavjud yoshlar bilan ishlash bo'yicha birinchi prorektor (direktorning birinchi o'rinbosari) lavozimi qisqartiriladi.

8. Markaz, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining hududlarda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini mustahkamlash, aholi, ayniqsa, yoshlar ongi va qalbida ma'naviy fazilatlarini yuksaltirish, oila va mahallalarda hamjihatlikni mustahkamlash maqsadida barcha tuman va shaharlarda Ma'naviyat va ma'rifat maskanini tashkil etish to'g'risidagi taklifi ma'qullansin.

2021-2023-yillarda Ma'naviyat va ma'rifat maskanlarini barpo etishning manzilli ro'yxati [7-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

Mazkur maskanlar yangi qurilishlar orqali yoki bo'sh turgan binolarda mahalliy budjet mablag'lari hisobidan tashkil etilishi belgilansin.

9. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi 2021/2022-o'quv yilidan boshlab oliy ta'lim tizimining tegishli ta'lim yo'nalishlari o'quv rejalariga bakalavriat

Davlat tashkilotlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil qilish yuzasidan (metodik qo'llanma) nazorat savollari

1-variant

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-mart "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5040-son qarori mazmun va mohiyati.
2. Ma'naviyatni kishilar ongiga singdirishning ahamiyati nimada?
3. Notiqlik va nutq so'zlash odobi nimalardan iborat?

2-variant

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-mart "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5040-son qarori mazmun va mohiyati.
2. Jamoatchilik fikrini o'rganish nima uchun zarur?
3. Ma'naviy-ma'rifiy jarayonlardan tinglovchilarning asosiy qiziqishlari nimalardan iborat?

3-variant

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-mart "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5040-son qarori mazmun va mohiyati.
2. Jamoatchilik fikrini o'rganish qanday amalga oshiriladi?
3. Ma'ruza o'qishdagi asosiy kamchiliklar nimalardan iborat?

4-variant

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-mart "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5040-son qarori mazmun va mohiyati.
2. Jamoatchilik fikrini o'rganishda qanday sotsiologik tadqiqot usullaridan foydalanilgan ma'qul deb o'ylaysiz?
3. Targ'ibotchi va davlat idoralari xodimlarining etiket madaniyati nimalardan iborat?

soʻzlayotganligini esdan chiqarmaslik va soʻzlarni nooʻrin, nomuvofiq maʼnolarda qoʻllash, matnda mazmun va maʼnolarning, tushunchalarining qorishtirilishiga ehtiyot boʻlish, fikrning izchil rivojlanib borishini esdan chiqarib qoʻymaslik, bemaʼni va tuturiqsiz fikrlashdan saqlanish,

S) Faktlarga asoslanishni esdan chiqarib qoʻymaslik, asosiy maqsaddan chalgʻib ketmaslik, hammaning asosiy diqqatini maʼlum mavzu, maʼlum bir masala atrofiga tortish, vaziyat taqozosiga koʻra xushyorlik va epcillik bilan suhbat usulini oʻzgartirishga erishish.

D) Barchasi toʻgʻri.

15. Lord Morliga koʻra notiqlik sanʼati samaradorligini oshirishning necha omilini taʼkidlagan?

A) 3.

B) 4.

S) 6.

D) 7.

bosqichida “Maʼnaviyatshunoslik”, magistratura bosqichida “Kasbiy maʼnaviyat” fanlari kiritilishini hamda magistratura taʼlim bosqichida “PR-menejer” mutaxassisligi boʻyicha kadrlar tayyorlanishini yoʻlga qoʻysin.

10. Innovatsion rivojlanish vazirligi Markaz bilan birgalikda ikki oy muddatda milliy gʻoya targʻiboti va maʼnaviy-maʼrifiy ishlar yoʻnalishida ilmiy-tadqiqot ishlariga davlat buyurtmasi doirasida maqsadli fundamental, amaliy va innovatsion loyihalarni shakllantirsin va belgilangan tartibda moliyalashtirsin.

13. Toshkent shahar hokimligi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi bilan birgalikda ikki oy muddatda “Maʼrifat” targʻibotchilar jamiyati, “Maʼnaviy hayot” va “Tafakkur” jurnallari tahririyatini joylashtirish uchun bino ajratish boʻyicha Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritilsin.

14. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga [8-ilovaga](#) muvofiq oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritilsin.

15. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlari [9-ilovaga](#) muvofiq oʻz kuchini yoʻqotgan deb hisoblansin.

16. Markaz Adliya vazirligi bilan birgalikda ikki oy muddatda qonunchilik hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan oʻzgartirish va qoʻshimchalar toʻgʻrisida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritilsin.

17. Mazkur qarorning ijrosini samarali tashkil etish, uning ijrosi uchun masʼul idoralar faoliyatini muvofiqlashtirishga shaxsiy javobgar etib, Bosh vazir oʻrinbosari B.A.Musayev va Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisining oʻrinbosari D.M.Kenjayevo belgilansin.

Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Oʻzbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N.Aripov va Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari Z.Sh.Nizomiddinov zimmasiga yuklansin.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev

Toshkent sh.,
2021-yil 26-mart,
PQ-5040-son

MA'NAVIYAT – JAMIYATDAGI BARCHA SIYOSIY IJTIMOIY MUNOSABATLARNING MAZMUNI

“Mening nazarimda, insoniyat dunyosining buyuk bir yoritqichi – ma'naviyat chirog'i bor.

Bu chiroqning boshqalardan farqi shuki, u insonning ongi va tafakkurini yoritadi, qalbi, vijdonini uyg'otadi, odamiylik hissini kuchaytiradi.

O'zbekistonning yangi uyg'onish davrini yaratishga kirishgan ekanmiz, har bir yurtdoshimizning qalbi va ongida ana shunday ma'naviyat shu'lasi porlashi va u bizlarni ezgu ishlarga undab, yuksak ma'suliyat tuyg'usi bilan yashashga da'vat etib turishi kerak”.¹

Shavkat Mirziyoyev

Bugun insoniyat taraqqiyoti o'zining yuqori bosqichiga chiqdi, deyish mumkin. Texnika-texnologiyalarning rivojlanishi, insoniyat hayotining farovonlashuvi ortgani sayin jamiyatlar o'rtasidagi ziddiyatlar ham ortib bormoqda. Umuman bugungi kunda insonni doimiy ravishda o'ylantirib kelayotgan narsalar, jumboqli hodisalar, yechimini kutayotgan muammolar son-sanoqsiz. Ammo, shularning ichida eng muhimi va qolgan barcha muammolarni hal etishga turtki bo'lishi mumkin bo'lgan hodisa – ma'naviyat targ'iboti masalasidir.

Ma'naviyat qanchalik buyuk hodisa bo'lmasin uni targ'ibotsiz o'z-o'zidan insoniyat ongiga singdirib bo'lmaydi. Tom ma'nodagi ma'naviy yuksalishga targ'ibot jarayonisiz erishib bo'lmaydi. Zero, ma'naviyat biz erishishimiz lozim bo'lgan cho'qqining asosiy manzilga yetaklovchi yo'lidir.

Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, **“Biz uchun ma'naviyat – insonlar o'rtasidagi o'zaro ishonch, hurmat va e'tibor, xalq va davlat kelajagini birgalikda qurish yo'lidagi ezgu intilishlar, ibratli fazilatlar majmuasidir.**

¹ Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – T.: O'zbekiston, 2022. – B. 263.

11. Sotsiologik adabiyotlarga ko'ra intervyu turlari ko'rsatilgan javobni belgilang?

- A) Erkin intervyu,
- B) Standartlashtirilgan intervyu,
- S) Yarim standartlashtirilgan intervyu,
- D) Barchasi to'g'ri.

12. Sotsiologik so'rovlar o'tkazishda, shaxsini oshkor etmaslik, ular berayotgan javoblarga reaksiya bildirmaslik, anketasiga qaramaslik va ularga bosim o'tkazmaslik kabilar qanday talablar majmuiga taalluqli?

- A) Axloqiy,
- B) Madaniy,
- S) Ilmiy,
- D) To'g'ri javob yo'q.

13. Ma'ruzalar quyida keltirilgan qaysi qismlardan iborat bo'ladi?

- A) Maqsadni bayon etish, (kirish)
- B) Muammoni asoslash, (aniq raqamlar va dalillar keltirish orqali sabab va oqibatlar tahlili)
- S) Muammoni hal etish yo'llarini ko'rsatish va tinglovchilarni muammoni hal etishga da'vat qilish,
- D) Barchasi to'g'ri.

14. Notiqlik san'atiga qo'yiladigan talablarni belgilang?

- A) Boshqalarning fikrlarini e'tibor bilan tinglash, birovning fikrini bo'lmaslik, noo'rin luqmalar tashlamaslik, so'zlashib turgan odamlar suhbatiga noo'rin, uzrsiz aralashmaslik va tushunmagan, to'la anglamagan holda fikr bildirishga shoshilish,
- B) Vaziyatni hisobga olmagan holda gapirish, qattiq yoki o'ta sekin so'zlash, o'zidan kattalar, bilimdon odamlar oldida amalni ro'kach qilgan holda so'zlash yoki “bilimdonlik” qilish, ezmalik yoki o'jarlik bilan fikrni ma'qullatishga harakat qilish, qayerda so'zlayotganligini, qachon

D) Harakat ko‘lamiga ko‘ra, chegaralanmagan kuzatish ya’ni kuzatuvchi aniq bir harakat rejasiga asoslanmagan holda amalga oshiradi, chegaralangan kuzatish, bunda kuzatuvchi tadqiqoti aniq chegaralangan dasturga asoslanadi.

9. Sotsiometriya usuliga xos belgini ko‘rsating?

A) Sotsiometriya lotinchada *societas* – jamiyat va yunoncha *metron* – o‘lchamoq ma’nosini anglatib, kichik ijtimoiy guruhlardagi shaxslararo munosabatlarni miqdoriy o‘lchovlar asosida o‘rganadi. Unda kishilarning o‘zaro bir-birlarini xush ko‘rish, yoqtirish va xush ko‘rmaslik mayillari o‘rganiladi.

B) Sotsiometriya lotinchada *societas* – jamiyat va yunoncha *metron* – o‘lchamoq ma’nosini anglatib, barcha jamiyat qatlamidagi ijtimoiy guruhlardagi shaxslararo bo‘lmagan munosabatlarni o‘lchovlar asosida o‘rganadi.

S) Sotsiometriya lotinchada *societas* – jamiyat va yunoncha *metron* – o‘lchamoq ma’nosini anglatib, kichik ijtimoiy guruhlardagi shaxslararo munosabatlarni miqdoriy o‘lchovlar asosida o‘rganadi. Unda kishilarning o‘zaro bir-birlarini xush ko‘rish, yoqtirish va xush ko‘rmaslik mayillari muhim ahamiyat kasb etmaydi.

D) Sotsiometriya fransuzcha *societeus* – jamiyat va fransuzcha *metrone* – o‘lchamoq ma’nosini anglatib, kichik ijtimoiy guruhlardagi shaxslararo munosabatlarni miqdoriy o‘lchovlar asosida o‘rganadi. Unda kishilarning o‘zaro bir-birlarini xush ko‘rish, yoqtirish va xush ko‘rmaslik mayillari o‘rganiladi.

10. So‘rov usulining bu turida intervyu qanday funksiyalarni bajaradi?

A) Muayyan voqea-hodisa, jarayon to‘g‘risida ma’lumot yig‘iladi

B) Obyektga – respondentga intervyu orqali ta’sir ko‘rsatiladi.

S) Intervyu orqali empirik ma’lumotlarni yig‘ish shaxsning individual jihatlari bilan ro‘baro kelinib, u to‘g‘risida atroflicha ma’lumot to‘plash.

D) A va B javoblari to‘g‘ri.

Boshqacha aytganda, ma’naviyat – jamiyatdagi barcha siyosiy ijtimoiy munosabatlarning mazmuni va sifatini belgilaydigan poydevordir. Bu poydevor qancha mustahkam bo‘lsa, xalq ham, davlat ham shuncha kuchli bo‘ladi² – deb ta’kidlaydi.

Binobarin, ma’naviy jarayonlar rivoji jamiyat hayotida quyidagilarni amalga oshirishning asosiy omili bo‘lib xizmat qiladi:

✓ O‘zbekiston rivoji uchun tashabbuskorlikni kuchaytirish, jamiyatda ijodiy muhitni yaratish, har bir xodimda tevarak-atrofdan ro‘y berayotgan voqea-hodisalarga nisbatan daxldorlik hissini uyg‘otish, befarqlik, sansolarlik kabi salbiy holatlarga barham berish;

✓ fuqarolarda Vatanga va millatga cheksiz muhabbat ruhiyatini shakllantirish, Vatanning muqaddasligi, u insonning kindik qoni to‘kilgan tuproq, uni kamol toptiradigan, hayotiga mazmun baxsh etadigan tabarruk maskan ekanligini tushuntirish;

✓ kishilarda ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, diniy bag‘rikenglik kabi umumbashariy sifatlarni rivojlantirish va kengaytirish, ularda millatlararo hamjihatlikka rahna soluvchi illat tajavuzkor millatchilik va shovinizm ekanligini tushuntirish;

✓ kishilarning siyosiy madaniyatini oshirish, ularning davlat va jamiyat oldida turgan buyuk va muqaddas vazifalarni anglab yetish darajasini oshirish, mamlakatimiz siyosiy hayotida ro‘y berayotgan voqea-hodisalarni tahlil qila olish salohiyatini shakllantirish;

✓ jamiyat a’zolarining ma’naviy olamini, dunyoqarashini shakllantirish, ijtimoiy faolligini oshirish, siyosiy-huquqiy bilim saviyasini ko‘tarish, dunyoda sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarga baho berish ko‘nikmasini shakllantirish, mafkuraviy-g‘oyaviy jarayonlarni ongli ravishda anglab yetishiga ko‘maklashish.

² Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2022. – B. 267.

MA'NAVIYATNI KISHILAR ONGIGA SINGDIRISHNING AHAMIYATI

“Ma’naviyatsizlik va g‘oyasizlik har qanday jamiyatni tanazzul sari yetaklashi, davlat siyosati va boshqaruvini kuchsizlantirishi, korrupsiya, jinoyatchilik va axloqsizlik kabi illatlarning ildiz otishiga sabab bo‘lishi bilan bog‘liq misollarni insoniyat tarixidan ko‘plab keltirish mumkin.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, mustaqillikning oldingi bosqichlariga xos konsepsiyalar va dasturlarda siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy sohalar, xavfsizlik va siyosat masalalari yetarlicha o‘rin egallaydi.

Ammo, ularda negadir ma’naviy-ma’rifiy sohalar, ushbu yo‘nalishdagi islohotlar bilan bog‘liq serqirra jarayonlar o‘z aksini topmagan.

Natija esa ma’lum, ya’ni bugunga kelib ma’naviy sohadagi voqelik va jarayonlarni huquqiy tartibga solish ishlarini yangi bosqichga ko‘tarish va bunda zamon talablarini, Yangi O‘zbekistonning mustahkam poydevorini qo‘yish ehtiyojlarini hisobga olish zarurati yetilgan.

Shu munosabat bilan mamlakatimizning keyingi davrga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasida albatta ma’naviy-ma’rifiy islohotlarga alohida bo‘lim ajratilishi darkor, deb hisoblayman.

Istiqbolda bu sohada amalga oshirishimiz kerak bo‘lgan faoliyat ko‘lami va salmog‘i, ahamiyati va yo‘nalishlari, bu jahada ham natijadorlikka erishishi zarurati O‘zbekistonning 2022-2032-yillarga mo‘ljallangan ma’naviyat taraqqiyoti strategiyasini ishlab chiqishni uni davlat siyosatining tarkibiy qismiga aylantirishni talab qilmoqda”³.

Shavkat Mirziyoyev

Davlatimiz rahbarining ana shu fikrlaridan kelib chiqib targ‘ibotning zamonaviy usul va vositalarini ishlab chiqishimiz, kelgusi targ‘ibot ishlarni yanada jonlantirish, ularni tizimli asosda yo‘lga qo‘yishimiz va jamiyatning har bir a‘zosi bu jarayonda jonbozlik ko‘rsatishi zarur bo‘ladi. Binobarin, ma’naviy-ma’rifiy sohada

³ Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2022. – B. 272-273.

bo‘yicha ma’lumot olish va jamoatchilik fikrini boshqarish imkoniyatini beradi,

S) Jamoatchilik fikri bu muayyan bir jamiyatdagi yoki davlatdagi mavjud holat bo‘yicha kishilarning fikrlari va xulosalari yig‘indisi. Agar biz jamiyatni yaxlit bir organizm deb tasavvur etadigan bo‘lsak, jamoatchilik fikri uning pulsidir,

D) Barchasi to‘g‘ri.

6. Jamoatchilik fikrini o‘rganish usullari?

A) Intervyu,

B) Kuzatish,

S) Anketa ,

D) Barchasi to‘g‘ri.

7. Kuzatish usuli to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni belgilang?

A) Bu usulda tadqiqotchi tadqiqot obyektidan mustaqil bo‘ladi va unga bo‘ysunmaydi,

B) Jamiyat a‘zolarining ijtimoiy voqea, hodisa va jarayonlarga munosabatini bilish, fikrini o‘rganish, mavjud muammolar haqida axborotlar olishda foydalaniladi,

S) Muayyan voqea-hodisa, jarayon to‘g‘risida ma’lumot yig‘iladi; shu bilan birga, obyektga – respondentga intervyu orqali ta’sir ko‘rsatiladi.

D) Barchasi to‘g‘ri.

8. So‘rov (Intervyu) usuliga xos bo‘lgan belgini ko‘rsating?

A) Bu usulda tadqiqotchi tadqiqot obyektidan mustaqil bo‘ladi va unga bo‘ysunmaydi,

B) Jamiyat a‘zolarining ijtimoiy voqea, hodisa va jarayonlarga munosabatini bilish, fikrini o‘rganish, mavjud muammolar haqida axborotlar olishda foydalaniladi.

S) Muayyan voqea-hodisa, jarayon to‘g‘risida ma’lumot yig‘iladi, shu bilan birga, obyektga – respondentga intervyu orqali ta’sir ko‘rsatiladi.

3. Ma'naviy jarayonlar rivoji uchun jamiyat hayotida asosiy nechta omil sanab o'tilgan?

- A) 5.
- B) 6.
- S) 7.
- D) 9.

4. Davlat rahbarining ma'naviyat borasidagi istiqboldagi dasturamal ishlab chiqarish borasidagi fikrini belgilang?

A) Ma'naviyatsizlik va g'oyasizlik har qanday jamiyatni tanazzul sari yetaklashi, davlat siyosati va boshqaruvini kuchsizlantirishi, korrupsiya, jinoyatchilik va axloqsizlik kabi illatlarning ildiz otishiga sabab bo'lishi bilan bog'liq misollarni insoniyat tarixidan ko'plab keltirish mumkin,

B) Shuni alohida ta'kidlash joizki, mustaqillikning oldingi bosqichlariga xos konsepsiyalar va dasturlarda siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy sohalar, xavfsizlik va siyosat masalalari yetarlicha o'rin egallaydi,

S) Bugunga kelib ma'naviy sohadagi voqelik va jarayonlarni huquqiy tartibga solish ishlarini yangi bosqichga ko'tarish va bunda zamon talablarini, Yangi O'zbekistonning mustahkam poydevorini qo'yish ehtiyojlarini hisobga olish zarurati yetilgan,

D) O'zbekistonning 2022-2032-yillarga mo'ljallangan ma'naviyat taraqqiyoti strategiyasini ishlab chiqishni uni davlat siyosatining tarkibiy qismiga aylantirishni talab qilmoqda.

5. Jamoatchilik fikrining ahamiyati ko'rsatilgan javobni belgilang?

A) Ma'lumki, har qanday targ'ibotning negizida ma'lum bir tizim yaratish maqsadi turadi. Shunday ekan qanday tashkilot yoki idora bo'lmasin avvalo, uni ichki muhiti o'rganiladi. Kelib chiqilgan xulosalar natijasida targ'ibot ishlari boshlanadi,

B) Jamoatchilik fikrini o'rganish muayyan jamiyatdagi odamlarning xohish istagi, kayfiyati, muammolar va ularning yechimlari

jamoatchilik fikrining shakllanishi tizimning barqaror rivojlanishini ta'minlab beradi.

JAMOATCHILIK FIKRINI O'RGANISH NIMA UCHUN ZARUR?

Ma'lumki har qanday targ'ibotning negizida ma'lum bir tizim yaratish maqsadi turadi. Shunday ekan qanday tashkilot yoki idora bo'lmasin avvalo, uni ichki muhiti o'rganiladi. Kelib chiqilgan xulosalar natijasida targ'ibot ishlari boshlanadi.

Shu ma'noda, jamoatchilik fikrini o'rganish muayyan jamiyatdagi odamlarning xohish istagi, kayfiyati, muammolar va ularning yechimlari bo'yicha ma'lumot olish va jamoatchilik fikrini boshqarish imkoniyatini beradi. Jamoatchilik fikri bu muayyan bir jamiyatdagi yoki davlatdagi mavjud holat bo'yicha kishilarning fikrlari va xulosalari yig'indisi.

Shu sababli, ma'naviyat targ'ibotchisi doimo jamoatchilik fikrini o'rganib borishi, targ'ibot tashviqot ishlarida to'plangan ma'lumotlar asosida muayyan xulosalar chiqarishi, har doim o'z ma'ruzalarini jamoatchilik fikri asosida tayyorlashi va unga ijobiy ta'sir ko'rsatish va uni boshqarishi maqsadga muvofiq.

Agar biz jamiyatni yaxlit bir organizm deb tasavvur etadigan bo'lsak, jamoatchilik fikri uning pulsidir.

Aynan jamoatchilik fikrini o'rganish orqali mavjud muammolar bo'yicha aniqroq, ishonchliroq va batafsil ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin. Muammoga turlicha rakurslardan nazar tashlash imkoniyati yuzaga keladi. Muammo haqidagi ma'lumotlaringizni representativligi oshadi. Natijada, muammolarni bartaraf etish bo'yicha ham eng to'g'ri tashhisi qo'yish mumkin bo'ladi. Jamoatchilik fikri o'zgaruvchan bo'lib, uni boshqarish uchun muntazam o'rganib borish va unga asoslangan holda muammolar yechimini topishga harakat qilish xalq va mahalliy vakillik organlari o'rtasidagi o'zaro ishonchni mustahkamlaydi. Muammolarni hal etish osonlashadi, mahalliy rahbarlarning xalq oldidagi obro' e'tibori ortadi, legitimligi ta'minlanadi.

JAMOATCHILIK FIKRINI O‘RGANISH QANDAY AMALGA OSHIRILADI?

Mamlakatimizda mustaqillikka erishilgandan so‘ng, jamoatchilik fikrini o‘rganish maqsadida bir qator ilmiy markazlar tashkil etildi. Normativ-huquqiy me‘yoriy hujjatlar qabul qilindi.

Hozirgi kunda jamoatchilik fikrini o‘rganuvchi “Ijtimoiy fikr” markazi faoliyat ko‘rsatmoqda. Oliy o‘quv yurtlarida jamoatchilik fikri asosiy tadqiqot obyekti bo‘lgan sotsiologiya fani o‘qitila boshladi. Sotsiologiya fanini joriy etishdan maqsad jamoatchilik fikrini ilmiy asoslangan tadqiqot usullari yordamida o‘rganishni tizimli yo‘lga qo‘yish va malakali mutaxassislarni tayyorlash, jamoatchilik fikrini boshqarishning samarali usullarini ishlab chiqishdan iboratdir. Jamoatchilik fikrini o‘rganishda sotsiologik tadqiqot usullaridan keng foydalaniladi.

JAMOATCHILIK FIKRINI O‘RGANISHDA FOYDALANILADIGAN SOTSIOLOGIK TADQIQOT USULLARI (KUZATISH, ANKETA, INTERVYU, SOTSIOMETRIYA)

Jamoatchilik fikrini o‘rganishda keng foydalaniladigan sotsiologik tadqiqot usullariga anketa so‘rovlari, kuzatish, intervyu, sotsiometriya kabi usullar kiradi. Biz davlat tashkilot va korxonalarida so‘rov o‘tkazishning eng qulay usullarini taqdim etamiz.

KUZATISH USULI

Sotsiologik tadqiqotlarda *kuzatish usuli* empirik ma‘lumotlarni yig‘ish uchun muayyan maqsadni ko‘zlagan holda, oldindan puxta o‘ylab, muntazam amalga oshiriladi. Bu usulda tadqiqotchi tadqiqot obyektidan mustaqil bo‘ladi va unga bo‘ysunmaydi. *Kuzatish usuli* natijasida to‘plangan ma‘lumotlar obyektivligi va hayotiyliги bilan alohida

DAVLAT TASHKILOTLARIDA MA’NAVIY-MA’RIFIY ISHLARNI TASHKIL QILISH XUSUSIYATLARI MAVZUSI YUZASIDAN TESTLAR

1. Ma’naviy–ma’rifiy ishlar tizimini tashkil qilish qaysi normativ-huquqiy hujjat bilan tartibga solinadi?

- A) “Mehnat” qonunchiligi,
- B) “Tadbirlarni belgilangan tartib bo‘yicha tashkil etish to‘g‘risida”gi Nizom,
- S) “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident qarori,
- D) “Joylarda ma’naviy–ma’rifiy tadbirlarni tashkil etishni takomillashtirish to‘g‘risida”gi Prezident qarori.

2. Quyidagilardan qaysi biri ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari etib belgilangan?

- A) ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan “Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari” g‘oyasini keng targ‘ib etish orqali jamiyatda sog‘lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish,
- B) oila, ta‘lim tashkilotlari va mahallalarda ma’naviy tarbiyaning uzviyligini ta‘minlash hamda targ‘ibot-tashviqot va tarbiya yo‘nalishidagi ishlarni ilmiy asosda tashkil etish, soha bo‘yicha ilmiy va uslubiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish, ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan doimiy monitoring tizimini joriy qilish,
- S) el-yurt taqdiriga loqaydlik, mahalliychilik, urug‘-aymoqchilik, korrupsiya, oilaviy qadriyatlarga bepisandlik va yoshlar tarbiyasiga mas‘uliyatsizlik kabi illatlarga barham berishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish shuningdek, aholining Internet jahon axborot tarmog‘idan foydalanish madaniyatini oshirish, g‘oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetini kuchaytirish,
- D) Barchasi to‘g‘ri.

faoliyat turi, maqsad-muddaolaridan kelib chiqib, tashkil etiladi. Bu mazkur masalada yagona andoza yo‘q, degan ma‘noni anglatmaydi.

Mamlakatda milliy g‘oya targ‘iboti va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar, tub islohotlar tizimli tashkil etilib, amalga oshirilayotgan ekan, “Ma‘naviyat va ma‘rifat xonasi” muayyan umumiy talablarga javob berishi, demak, uni tashkil etish bo‘yicha yagona andoza bo‘lishi zarurligini taqozo qiladi.

Shunday bo‘lsa-da, bu zarurat qat‘iy ixtiyoriylikka asoslanishi kerak. Bu o‘rinda ixtiyoriylikdan murod – hududiy o‘ziga xoslik, kasbiy xilma-xillik, milliy urf-odatlarini inkor etmaslikdir. Shuning uchun ham “Ma‘naviyat va ma‘rifat xonasi”ning andozasi tavsiya xarakteriga ega bo‘ladi:

1. Umumta‘lim muassasasi axborot-resurs markazi (kutubxona)ning o‘qish zali yoki alohida, barcha uchun qulay bo‘lgan auditoriyalardan birida tashkil etilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ularning yonma-yon joylashgani o‘quvchi-talabalarga qulaylik yaratib, turli mazmundagi kitoblar mutolaasidan tashqari yurtimizda va dunyoda sodir bo‘layotgan yangiliklardan ham xabardor bo‘lish imkoniyati paydo bo‘ladi.

2. “Ma‘naviyat va ma‘rifat xonasi” vazirliklar, davlat qo‘mitalari, uyushmalar, korporatsiyalar, konsernlar, kompaniyalar, birlashmalar, banklar, muassasalar va ishlab chiqarish korxonalarining kichik majlislar zalida tashkil etilishi tavsiya etiladi. Chunki, aksar majlislar, uchrashuvlar ayni shu zalda tashkil etiladi. Bu esa targ‘ibot, tashviqot ishlari samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

3. Ajratilgan xona 30-50 kishiga mo‘ljallangan, yorug‘ va binoning qulay qismida joylashgan bo‘lishi lozim. Bu o‘tkaziladigan uchrashuvlarning bahsli, munozarali bo‘lishini ta‘minlaydi. Shuningdek, ishtirokchilarning me‘yorda bo‘lishi bu yerda o‘quv-treninglar ham o‘tkazilishi uchun qulay hisoblanadi.

Texnik va mebel jihozlarining qulay joylashuvi, yetarli darajada bo‘lishi, shuningdek, boshqa bezaklar xonani mazmunan boyitishi shartligi zaruriy shartlardan hisoblanadi.

ahamiyatlidir. Shu bilan birga, kuzatish usulidan olingan ma‘lumotlarda subyektiv ta‘sir ham bo‘lishi mumkin. Ammo, bu tadqiqotchining (kuzatuvchi) obyekt bilan bog‘liq o‘zgarishlar dinamikasiga nisbatan reaksiyasiga va bu o‘zgarishlarni qanday qabul qilishiga bog‘liq.

Bu usulning asosiy afzalligi tadqiqotchi obyekt haqida bevosita o‘zi guvohi bo‘lgan ma‘lumotlarga ega bo‘ladi. Bu jihatdan ushbu usul haqqoniy ma‘lumotlar to‘plash uchun eng maqbul usul hisoblanadi. Ammo, kuzatish usulida ko‘pincha tadqiq etilayotgan voqelikni qayta kuzatish imkoniyati bo‘lmaydi. Shuningdek, kuzatish orqali tadqiqotchini qiziqtirgan savoliga kuzatiluvchining fikr va xulosalarini bilish juda qiyin.

Kuzatish usulida tadqiqotchi tadqiqot obyektining xususiyatidan kelib chiqib, o‘z kuzatuv faoliyatini tashkil qiladi. Kuzatishning bir qancha turlari mavjud.

Kuzatish ochiq yoki yopiq bo‘lishi mumkin. Ochiq kuzatishda kuzatilayotgan guruh oldindan ogohlantirib qo‘yiladi, yopiq kuzatishda esa obyekt o‘zini kuzatilayotganligidan xabardor qilinmaydi.

Harakat ko‘lamiga ko‘ra, chegaralanmagan kuzatish ya‘ni kuzatuvchi aniq bir harakat rejasiga asoslanmagan holda amalga oshiradi, chegaralangan kuzatish, bunda kuzatuvchi tadqiqoti aniq chegaralangan dasturga asoslanadi.

Kuzatish joyiga ko‘ra, dala sharoitida kuzatish obyektini qilib sotsial voqelikning u yoki bu tomoni, jarayoni olinadi. Laboratoriya sharoitidagi kuzatishda esa obyekt qilib obyektiv voqelikka ma‘lum bir darajada moslashtirilgan model olinadi.

Bevosita ichkaridan kuzatish ya‘ni tadqiqotchi kuzatayotgan obyektga ro‘y berayotgan ijtimoiy jarayonlarda bevosita ishtirok etadi, tashqaridan kuzatishda esa tadqiqotchi obyektga nisbatan mustaqil bo‘ladi va obyektidagi o‘zgarishlarga bevosita ta‘sir ko‘rsata olmaydi.

Sotsiologik kuzatishlarda doimo asosiy obyekt inson bo‘lib, agar u tadqiqotchining maqsadini sezib qolsa, xulq atvorini o‘zgartirishi mumkin. Bu esa obyekt haqida aniq ma‘lumot olish imkoniyatini keskin pasaytirib yuboradi.

Shuning uchun, bu usuldan obyekt haqida dastlabki tasavvurlarni shakllantirishda ko‘proq foydalaniladi.

SO'ROV USULI VA UNING TURLARI

Sotsiologik ma'lumotlarni yig'ish usullaridan biri so'rov usulidir. So'rov usulidan jamiyat a'zolarining ijtimoiy voqea, hodisa va jarayonlarga munosabatini bilish, fikrini o'rganish, mavjud muammolar haqida axborotlar olishda foydalaniladi.

So'rovlar og'zaki va yozma bo'lishi mumkin.

Yozma so'rov turi bu "anketa" hisoblanadi. Anketa savollari orqali respondentlardan olinadigan javoblarni umumlashtirib, guruhlashtirish bilan tadqiq etilayotgan ijtimoiy muammo to'g'risidagi jamoatchilik fikri oydinlashadi. Ma'lumotlarning ishonchliligi tadqiqotchining anketa savollari tuzishdagi mahorati bilan bog'liq. Anketa savollari respondentlarning umumiy saviyasi (respondent xarakteri, yoshi, kasbi, ma'lumot darajasi va ruhiy jihatlari)dan kelib chiqib sodda, tushunarli va javob berish uchun qulay tuzilgan bo'lishi kerak.

Anketa pasport savollari, asosiy savollar va yakunlovchi savollardan iborat bo'ladi.

Pasport savollari orqali respondentning yoshi, jinsi, millati, ijtimoiy kelib chiqishi va holati, ma'lumot darajasi, kasbi, partiyaviyligi, oilaviy ahvoli kabi ma'lumotlar aniqlanadi.

Asosiy savollar anketaning eng muhim qismi bo'lib, aynan ushbu savollarga beriladigan javoblar orqali tadqiqot mavzusiga doir ma'lumotlar to'planadi.

Anketa oxirida yakunlovchi savollar kiritiladi. O'z mohiyatiga ko'ra, yakunlovchi savollar asosiy savollarning mantiqiy davomi bo'lib, unda o'rganilayotgan muammo yuzasidan respondentning individual, qo'shimcha fikr va mulohazalari olinadi. Anketa so'nggida tadqiqot uchun ko'rsatilgan beminnat yordam evaziga samimiy minnatdorchilik bildirishni unutmashlik kerak.

Anketa savollari shakliga ko'ra:

- ochiq,
- yopiq,
- yarim ochiq,
- yarim yopiq bo'ladi.

Ushbu sohaga har bir ta'lim muassasalari, davlat va nodavlat tashkilotlari, vazirliklar, davlat qo'mitalari, uyushmalar, korporatsiyalar, birlashmalar, banklar, ishlab chiqarish korxonalari o'zining munosib hissasini qo'shishni istaydi. Shuning uchun ham, bu ezgu harakat ixtiyoriy hamda hududiy xarakterga ega. Tashkilotlar jamoa istagiga tayanib, ularning mental xususiyatlarini hisobga olgan holda ezgu ishlarga qo'l urishmoqda. Bu yurtimizning har qanday fuqarosi qalbida milliy g'urur hissini shakllantirishi shubhasiz. Binobarin, ushbu bunyodkorlik ishlari milliy g'oyamizning ro'yobi, amalga oshirilgan va oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy sohadagi izchil islohotlarning natijasidir.

Mana shu natijadorlik har bir tashkilotda jamoaga yetkazib berilishi zarur. Buning aniq bir joyda amalga oshirilishi zarurati ma'naviy-ma'rifiy joyga tabiiy ehtiyojni hosil qiladi.

Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazish, ma'rifat ulashishga mo'ljallangan bu maxsus joyni nima deb nomlash kerak? Nomlar ko'p, ammo ulardan eng ma'quli, ko'zlangan maqsadga mos keladigani, shu bilan birga, jozibadorini – boshqalarni o'ziga ohanrabodek tortadiganini tanlash muayyan izlanishlarni talab qiladi. Chunki, bir maqsadga yo'naltirilgan amaliyot hamma joyda ayni bir nom bilan atalishi talab etiladi.

Shu ma'noda, ma'rifiy, ma'naviy tadbirlar o'tkaziladigan, aholi, ayniqsa, yoshlarga ilm, ziyo ulashadigan joyga nisbatan ***“Ma'naviyat va ma'rifat xonasi”*** nomini qo'llash har tomonlama maqsadga muvofiq keladi.

“Ma'naviyat va ma'rifat xonasi” barcha ta'lim muassasalari, turli davlat, nodavlat va jamoat tashkilotlari, ishlab chiqarish korxonalarida tashkil qilinadi. Undan ko'zlangan asosiy maqsad ma'naviy-ma'rifiy ishlarni samarali tashkil etish, o'tkazish va natijadorligini ta'minlashdir. Boshqacha aytganda, ***“Ma'naviyat va ma'rifat xonasi”*** har bir jamoaning yuzi va u fuqarolarning ma'naviy yuksalishiga xizmat qiladi.

Ammo aytish kerakki, ***“Ma'naviyat va ma'rifat xonasi”*** o'zi joylashgan muassasa va tashkilot, korxonalar va jamoa o'z imkoniyatlari,

etikdan tashkil topishi, xodimlarning soch turmagi tartibli, o'рта uzunlikda va taralgan bo'lmog'i lozim.

- Ayol xodimlarning kiyimi o'ta ochiq bo'lmasligi,
- Klassik uzunlikda bo'lishi hamda zargarlik buyumlari ham me'yorda taqilishi, xotin-qizlarning bo'yanishi o'ta yorqin bo'lmasligi, soch turmagi esa orasta bo'lishi va boshqalarning e'tiborini tortmasligi talab etiladi.
- Mas'ul lavozimdagi ayol xodim kiyimining standart jamlamasi klassik uslubdagi palto, kurtka, plash, kostyum, jaket, yubka, bir xil rangdagi kofta va bluzkalar, 4-5 santimetr balandlikdagi tufli, klassik uslubdagi etikdan tashkil topishi maqsadga muvofiq.

Mazkur qoidalarning tegishli tashkilotlarda joriy qilinishi kelajakda davlat idoralarida ish samaradorligini oshishiga, fuqarolarning davlat organlariga bo'lgan ishonchini oshishiga, va mamlakatimizni yanada rivojlanishiga xizmat qiladi deb o'ylaymiz.

MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT XONASI QANDAY BO'LISHI KERAK?

Yurtimiz istiqbolga erishgach mamlakatimizda barcha sohalarda bo'lgani singari g'oyaviy-mafkuraviy, ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishda ham misli ko'rilmagan muhim o'zgarishlar yuz berdi. Bu o'rinda ma'naviyat sohasiga alohida e'tibor qaratila boshlandiki, buning ham muayyan sabablari bor. Binobarin, milliy g'oyamizning mustahkam asoslaridan biri shubhasiz ajdodlarimizdan meros bo'lib kelayotgan buyuk ilmiy xazinadir. Mana shu xazinani xalqimiz, xususan, yoshlarga yetkazishda turli usullardan foydalanish mumkin. Internet saytlari, kitoblar, ilmiy-ommabop maqolalar, teleko'rsatuvlar, radioeshittirishlar va shu jumladan, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar shular jumlasidandir.

Ta'lim va tarbiya oiladan boshlanib, ta'lim maskanlarida davom ettirilib, kamolotiga yetkazilar ekan, bu o'rinda oila – mahalla – ta'lim muassasasi munosabatining o'rni va ahamiyati katta.

Ochiq savollarda respondentning fikrini bilish maqsadida tuzilgan bo'lib, javob variantlari berilmaydi. Bunday savollarga respondent o'zi xohlaganidek javob berishi mumkin.

Yopiq savollarda esa respondentning fikr bildirish imkoniyati cheklangan bo'lib, faqat oldindan yozib qo'yilgan javoblardan birini tanlashi kerak bo'ladi.

Yarim ochiq yoki yarim yopiq savollarda esa respondent javob variantlaridan birini tanlashi yoki o'zining javobini taqdim etish imkoniyati yaratilgan bo'ladi.

INTERVYU – HOZIRGI KUNDA ENG KO'P VA KENG TARQALGAN SO'ROV USULIDIR

Intervyudan bu qadar keng ko'lamda foydalanishda radio, televidenie, kundalik matbuotning roli katta bo'lmoqda. Ayniqsa, hozirda bozor munosabatlariga o'tish sharoitida kundalik hayotimizda ro'y berayotgan jiddiy o'zgarishlar to'g'risidagi ommaning ijtimoiy fikrini aniqlashda intervyu olishning salmog'i ortmoqda.

So'rov usulining bu turida intervyu ikki asosiy funksiyani bajaradi:

- muayyan voqea-hodisa, jarayon to'g'risida ma'lumot yig'iladi;
- shu bilan birga, obyektga – respondentga intervyu orqali ta'sir ko'rsatiladi.

Sotsiologik tadqiqotlarda *intervyu* o'ziga xos xususiyatlarga ega. Eng avvalo, shuni ko'rsatib o'tish lozimki, intervyu orqali empirik ma'lumotlarni yig'ish shaxsning individual jihatlari bilan ro'baro kelinadi. Shu orqali respondent to'g'risida, uning tadqiq etilayotgan muammo to'g'risidagi qarashlari, fikri to'g'risida axborot olinadi. Beriladigan savollarga nisbatan respondentning ruhiy reaksiyasi kuzatiladi va hisobga olinadi.

Intervyu olishda tadqiqotchi respondent bilan *yaqin, samimiy, yuksak axloqiy muomalada* bo'lishi shart. Beriladigan savollar avvaldan puxta o'ylangan, respondentning shaxsiyatiga tegmaydigan, mazmunli bo'lishi talab qilinadi. Bunday shartlar respondentning intervyu so'roviga

jiddiy munosabatda bo'lib, beriladigan savollarga to'la va har tomonlama javob berishini ta'minlaydi.

Intervyu olishda o'ziga xos qiyinchiliklar ham mavjud. Bunday qiyinchiliklarga eng avvalo intervyu ko'p vaqt va moddiy sarf-harajatlar talab qilishini kiritish lozim. Har bir respondent bilan ruhiy munosabat o'rnatish zarur. Bunga esa doimo ham erishilavermaydi. O'ta injiq, alamzada, xatto tajovuzkor respondentlar ham uchrab turadi. Sotsiologik tadqiqot o'tkazish madaniyati esa intervyu yakunining doimo muvaffaqiyatli va ijobiy tugallanishini talab qiladi.

Intervyu tayyorlash, uni o'tkazish va olingan natijalarni umumlashtirishning o'zi qiyin jarayon hisoblanadi. Chunki, o'rganilayotgan muammoning mohiyati, kelib chiqish sabablari, umumiy tendensiyalari va uni bartaraf qilish yo'llarini o'rganish uchun yuzlab respondentlar bilan muloqotda bo'lishga to'g'ri keladi. Bir yoki ikki kishi bilan intervyu olish bilan tadqiqot obyekti bo'yicha obyektiv asosga ega bo'lgan ilmiy tasavvur hosil qilib bo'lmaydi.

Sotsiologik adabiyotlarga intervyu bir necha turlarga ajratib ko'rsatilgan, quyidagilar shular jumlasidandir:

Erkin intervyu (standartlashtirilmagan) – bunda respondent bilan uzoq, erkin tarzda suhbat o'tkaziladi. Respondentga avvaldan belgilangan savollarga qo'shimcha ravishda savollar bilan ham murojaat qilish mumkin. Respondentga erkin va keng tarzda fikr yuritish imkoniyati yaratiladi.

Standartlashtirilgan intervyu – oldindan rejalashtirilgan, muayyan mavzuning qat'iy belgilangan doirasidan chiqmaydigan turiga aytiladi. Intervyuning bu turi asosan davlat rahbarlari, siyosiy arboblar, siyosatchilar, mas'ul va ma'muriy shaxslar – respondentlar bilan o'tkaziladi.

Yarim standartlashtirilgan intervyu esa qat'iy belgilangan savollardan tashqari respondentning yoki tadqiqot obyektining norasmiy jihatlarni oydinlashtirish hamda ular to'g'risida qo'shimcha ma'lumotlarga ega bo'lish maqsadida o'tkaziladi. Ayrim kasb egalari bilan, masalan, artistlar, mashhur shaxslar, tarbiyasi og'ir bolalar,

Umumiy ma'noda har qanday libos gigiena nuqtai nazaridan quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- Tananing libos osti mikroiqlimini ijobiy nazorat qilishi;
- Nafas olishga, qon aylanishi va harakatga to'sqinlik qilmasligi, tananing ichki va tashqi a'zolarini siqmasligi, joyidan qo'zg'atmasligi;
- Yetarlicha mustahkam va tozalanishga qulay bo'lishi;
- Tashqi ta'sir natijasida kimyoviy reaksiyaga kirishmasligi, umuman, zararli bo'lgan fizik-kimyoviy moddalardan insonni himoya qilishi;
- Odamdagi umumiy vaznning 8-10 foizidan ortmasligi kerak.

TARG'IBOTCHI VA DAVLAT IDORALARIDA FAOLIYAT KO'RSATADIGAN XODIMLARNING TASHQI KO'RINISHIGA QUYIDAGI ASOSIY TALABLARNING QO'YILISHI MAQSADGA MUVOFIQ

- Bino ichiga bosh kiyimingiz bilan kirmang. Faqatgina istisno joylar – jamoat joylari, ya'ni poyezd, avtobus va metro bekatlari, pavilyonlar, lobbi va yo'laklarda, diniy va madaniy sabablarga ko'ra bosh kiyimingizni yechmasligingiz mumkin.
- Bayramlar, tadbirlar va yig'ilishlarga, ishga har kunlik va dam olish joylariga alohida kiyim kiying. O'zingiz bilmagan joylarga borganda ham iloji boricha rasmiy kiyinib boring.
- Kiyinish uslubi odami hamda ish uslubiga monand bo'lishi, toza, dazmollangan, atrofdagilarni o'ziga jalb qiladigan turli xildagi bezaklarsiz bo'lishi,
- Tanlangan poyabzal xodimning kiyimiga mos bo'lishi kerak.
- Erkak xodim kiyimining standart jamlamasi klassik uslubdagi palto, kurtka, plash, kostyum, pidjak, pidjak rangiga mos keluvchi to'q rangdagi shim, ko'ylak, jilet, ko'ylak va pidjak rangi hamda chiziqlariga mos keluvchi galstuk, bir xil rangdagi paypoq, tufli, klassik uslubdagi

Kimningdir shaxsiyatiga tegishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni oshkor qilish;

Reglamentga amal qilmaslik;

Ortiqcha nasihatlar qilish;

Kiyim va ma'ruza mavzusining mos kelmasligi.

TARG'IBOTCHI VA DAVLAT IDORALARIDA FAOLIYAT KO'RSATADIGAN XODIMLARNING KIYINISH MADANIYATI BO'YICHA TAVSIYALAR

Kiyinish etikasi qoidalarining asosiy maqsadi?

Targ'ibotchi xodimlarining kiyinish madaniyati, tashqi ko'rinishi, yurish-turishini odob-axloq qonun-qoidalariga mos keltirish orqali fuqarolarning davlat idorasiga bo'lgan hurmat va ishonchini va ish samaradorligini oshirishdan iborat bo'lishi zarur.

Targ'ibotchi birinchi navbatda, davlat hokimiyati idorasining obro'sini saqlashi, shu idora manfaatlarini uchun qayg'urishi lozim.

Kiyinish madaniyatida nimalarga e'tibor qilinishi kerak?

Mutaxassislar bu borada uch narsani judayam muhim deb biladilar:

- ✓ *yosh,*
- ✓ *tashqi,*
- ✓ *tashqi ko'rinish,*
- ✓ *xarakter.*

Har birimiz yoshimiz, tashqi ko'rinishimiz, ijtimoiy hayotdagi o'rnimiz, vazifalarimizdan kelib chiqqan holda kiyim tanlamog'imiz zarur. Aks holda, kiyinish me'yorlari buzilishi mumkin.

Kiyinish gigienasi inson uchun kerakmi?

Turmush gigienasining asosiy me'yorlarini tartiblashtirishga xizmat qilgan olimlarning ta'kidlashicha, libosning birlamchi vazifasi odam tanasini himoya qilishdan iborat.

jinoyatchi va boshqa shu kabi respondentlar bilan o'tkaziladigan intervyuni misol qilib olish mumkin.

O'tkazish jarayoniga ko'ra intervyu: a) ko'cha-ko'yda, b) guruhli, v) klinik, g) yo'naltirilgan kabi shakllarga ega. Muloqot vositasi sifatida esa ochiq, yuzma-yuz, telefon orqali yoki yopiq tarzda bo'lishi mumkin.

Ayrim respondentlar bilan yopiq tarzda intervyu o'tkazishga ham to'g'ri keladi. Bunda respondentning shaxsi sir tutiladi. Chunki, respondent ochiq intervyu berishdan manfaatdor bo'lmaydi. Ko'pincha, yopiq intervyu davlat ichki ishlar maxsus bo'limlari vakillar bilan, ayrim jinoyatchilar bilan, or-nomusni yo'qotib pushaymon bo'lgan shaxslar – respondentlar bilan olib boriladi.

Intervyuning har qanday tipidan (kamida 50 dan ortiq respondentdan) olingan empirik ma'lumotlar mazmun jihatdan guruhlariga ajratilib, umumlashtiriladi. Bu esa sotsiologik tadqiqot jarayonining keyingi bosqichida amalga oshiriladi.

SOTSIOMETRIYA USULI

Sotsiometriya lotinchada “Societas” – jamiyat va yunoncha “metron” (μετρέω) – o'lchamoq ma'nosini anglatib, kichik ijtimoiy guruhlardagi shaxslararo munosabatlarni miqdoriy o'lchovlar asosida o'rganadi. Unda kishilarning o'zaro bir-birlarini xush ko'rish, yoqtirish va xush ko'rmaslik mayillari o'rganiladi.

Har qanday kichik ijtimoiy guruh, tashkilot va muassasaning faoliyati uning a'zolari o'rtasidagi munosabatlar xarakteriga ko'p jihatdan bog'liqdir. Ularda ijtimoiy muhit qanchalik musaffo bo'lsa; ijtimoiy tizim faoliyati ham shunchalik muvaffaqiyatli boradi. Aks holda, kichik guruhlar va ulardagi kishilar hayoti shunchalik qiyin va og'ir kechadi. Sotsiometriya esa shu qiyinchiliklarni, nomuvofiqlilarni bartaraf etishga xizmat qiladi.

Aql kuchi, bioquvvat, xarakter, temperament, mayl, ta'b, odat, tarbiya, did, e'tiqod va shu kabi ijtimoiy-ruhiy omillar kishilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning murakkab gravitatsion asosini tashkil qiladi.

Ular asosida kishilar o‘zaro yaqin “tortiladilar”, do‘stona, samimiy bo‘ladilar yoki bir-biridan uzoqlashadilar, adovatda bo‘ladilar. Sotsiometriya shu jarayonlarni miqdoriy jihatdan o‘rganadi. O‘z navbatida miqdoriy o‘lchovlar sifatii ko‘rsatkichlarni farqlashga xizmat qiladi.

Jamiyat ijtimoiy hayotining sotsiodinamik tarzda rivojlanishini sotsiometriyada o‘rganish ko‘plab ijtimoiy-iqtisodiy, mafkuraviy, tarbiyaviy muammolarni yechishga xizmat qiladi. Ijtimoiy-ruhiy muhitni mo‘tadillashtiradi. Shuning uchun ham, kishilar o‘rtasidagi ijtimoiy-ruhiy munosabatlarni va tuyg‘ularni o‘rganish faqatgina nazariy emas, balki amaliy ahamiyat ham kasb etadi. Empirik sotsiometrik tadqiqotlar jamiyat hayotini, undagi kishilar o‘rtasidagi munosabatlarni muvofiqlashtirishda muhim ilmiy qimmatga ega.

SOTSILOGIK SO‘ROVLAR O‘TKAZISHGA QO‘YILADIGAN AXLOQIY (ETIKA) TALABLAR

Sotsiologik so‘rovlar o‘tkazish sotsiologik tadqiqotlarning eng muhim bosqichi bo‘lib, bu bosqichda tadqiqotchi bevosita respondentlar bilan yuzma-yuz keladi. Ma‘lumotlarning reprezentativligi aynan mana shu bosqichda so‘rovnoma o‘tkazishga mas‘ul shaxsning mahoratiga bog‘liq. Chunki, respondentlar barchasi turli kayfiyatlar bilan o‘tirgan bo‘ladi. Ularni aynan o‘zi bilmoqchi bo‘lgan muammoga diqqatini jamlash tadqiqotchidan katta mahorat talab etadi. Insonning tabiatiga xos bo‘lgan muhim xususiyatlardan biri ular har doim ham o‘z fikrini oshkor qilishni istamaydi. Shuning uchun ko‘pincha so‘rovnomalarga yuzaki yondoshuv ko‘zga tashlanadi. Shu sababli, so‘rovnoma o‘tkazuvchi shaxs respondentga ularning fikrlari muhim ekanligi va muammoni hal etishda ahamiyatli ekanligiga ishonchira olsagina muvaffaqiyatga erisha oladi. Shuning uchun tadqiqotchi avvalo respondentlarning ishonchini qozonishi kerak. Bunda quyidagi ishlarni amalga oshirish lozim:

- ✓ ishtirokchi shaxsini oshkor etmaslik;
- ✓ respondent berayotgan javoblarga reaksiya bildirmaslik;

TINGLOVCHILAR NIMAGA QIZIQADI?

Lord Morli fikricha, “nutqda uch omil muhim ahamiyat kasb etadi. Kim gapiryapti, qanday gapiryapti, nimani gapiryapti.” Notiq har doim biror bir auditoriyaga nutq so‘zlash uchun kirar ekan avvalo, u kimlarning oldiga kirayotganligini bilmog‘i kerak. Masalan, tinglovchilarning ma‘lumoti, qiziqishlari, maqsad va intilishlari, ish joyidagi muammolari, kayfiyati va hattoki sizdan nima kutishi mumkinligi, balki sizni savollar bilan qiynab qo‘yishni maqsad qilgandir. Bunday ma‘lumotlarni bilish ma‘ruzaning muvaffaqiyatli chiqishini ta‘minlaydi. Ma‘ruzachiga auditoriyani boshqarish osonlashadi.

Notiq har doim nutqining jonli va qiziqarli bo‘lishga harakat qilmog‘i kerak bo‘ladi. Hozirgi kunda notiqlar o‘z ma‘ruzalarini tayyorlashda interfaol uslublardan keng foydalanishmoqda. Bunda zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan samarali foydalangan holda turli slaydlar, videolar orqali ma‘ruzani qiziqarililigini ta‘minlash maqsadga muvofiq. Chunki, har qanday auditoriyada faqat eshitish orqali ma‘lumotlarni qabul qilish tinglovchilarni zeriktiradi.

MA‘RUZA O‘QISHDA KO‘P UCHRAYDIGAN ASOSIY KAMCHILIKLAR

So‘zlanayotgan ma‘ruzada ortiqcha dabdababozlik va jimjimador so‘zlardan haddan tashqari ko‘p foydalanish;

Adabiy til me‘yorlariga rioya qilmaslik;

Parazit so‘zlardan foydalanish;

Qog‘ozdan o‘qib berish;

Qo‘l, oyoq va gavda harakatlarini nazorat qila olmaslik;

Aniq maqsadni ochib bera olmaslik;

Noo‘rin hazillar yoki misollarning ishlatilishi;

Auditoriyaga nisbatan bepisand munosabatda bo‘lish;

O‘rinsiz tanqidlardan foydalanish;

eng qiziqarli jihat shundaki, u kimningdir kamchiligini bilsa, uning soʻzlarini beeʻtiborlik bilan eshitadi.

Nutq soʻzlayotganda jilmayib turing va bu tabiiy boʻlsin.

Nutq soʻzlashni boshlaganingizda tinglovchilarni bir joyga yigʻing. Agar ular har joyga sochilib oʻtirsas, ularga taʻsir koʻrsatish qiyin. Kamchilik odamlar bilan suhbatlashadigan boʻlsangiz, kichik auditoriyalarni tanlang, ulardan baland joyga oʻtirmang, iloji boricha bir qatorda oʻtirib gapiring.

Auditoriyada tinglovchilarga mensimaslik nuqtai nazaridan gapirmaslik lozim.

Hech qachon tinglovchilarning kamchiligini ochiqchasiga yuziga aytmang, bu sizga nisbatan reaksiya bildirishiga sabab boʻladi. Ayniqsa, ularning shaxsiyatiga tegadigan gaplardan nihoyatda ehtiyot boʻlish zarur.

Zal havosi toza va musaffo boʻlishiga harakat qiling, agar siz kirganda havo buzilgan boʻlsa, agar sizdan oldin tinglovchilar oʻtirgan boʻlsa, buni ularga sezdirmasdan amalga oshiring. Agar siz xonaga kiriboz zal havosi buzilib ketibdi, derazani ochsak boʻladimi desangiz shubhasiz auditoriyadagilarga sizlar shunaqa buzuq havoniyam his qilmaysizlarmi deganday yetib boradi. Bu shubhasiz auditoriyaga malol keladi va siz kelgandan ulardan kamchilik topganingiz kabi ular ham butun maʼruzangiz davomida sizdan ham kamchilik izlaydi.

Stolingiz ustini tartibga keltirib qoʻying, mayda-chuyda narsalar boʻlishi va betartiblik kishilarda sizni ham oʻzlariga oʻxshagan oddiy odam sifatida taassurot uygʻotadi.

Har doim jismoniy holatingizni nazorat qiling, tinglovchi huzurida paydo boʻlganda soʻz boshlashga shoshilmang, tinglovchilarga diqqat bilan koʻz tashlab chiqing, agar auditoriyada shovqin boʻlayotgan boʻlsa, u toʻxtaguncha nutqingizni boshlamang,

- ✓ javob bildirayotgan kishining anketasiga qaramaslik;
- ✓ soʻrov jarayonida respondentga bosim oʻtkazmaslik lozim.

Binobarin, respondent har doim xushmuomala, ochiq chehrali, samimiy kishilarga ishonch bildiradi.

Respondentlarning oʻrganilayotgan muammo boʻyicha eng toʻgʻri munosabatini olish uchun ularga maksimal darajada qulayliklarni yaratib berishga harakat qilmoq zarur. Chunki, ularning javoblari asosida olingan xulosa sizda tadqiqot oʻtkazmasdan oldin boʻlgan gipotezani butkul aksini namoyon etishi ham mumkin. Siz uchun arziyasiz tuyulgan muammo ildizini oʻrganganingizda u siz tomoningizdan mutlaqo aloqasi yoʻqdek tuyulgan boshqa bir necha muammolarning yechimi boʻlishi yoki aksincha siz muammo yechimi deb oʻylagan sabablar aslida mutlaqo aloqasiz boʻlishi mumkin. Sotsiologik tadqiqot usullari yordamida siz muammoning haqiqiy koʻlamini aniqlash imkoniga ega boʻlasiz.

NOTIQ MAʼRUZA TAYYORLASHDA NIMALARGA EʼTIBOR BERISHI KERAK?

Davlat tashkiloti va korxonalarida xodimlarni maʼnaviy jarayonlarga jalb qilish, ularda yuksak maʼnaviyatni shakllantirish uchun maʼruzalar tashkil qilinadi. Ana shu maʼruzalarni tashkil qilishda har bir tashkilot va korxonaning masʼullari maʼruzachini va maʼruza oʻtkazilish jarayonini qattiq nazoratga olishlari lozim boʻladi.

Har bir notiq maʼruzaga chiqishdan oldin tanlangan mavzuni chuqur oʻrganishi, kerakli dalillarni toʻplashi va maʼruza matnini qayta-qayta oʻqib tuzatishlar kiritishi lozim. Maʼruza mavzusi boʻyicha mutaxassislar fikrini oʻrganish, mushohada yuritishi va maʼruza uchun kuchli tayyorlanishi kerak.

Maʼruza uchun soʻzlarni toʻgʻri tanlay bilishi, har bir raqam va dalillar ishonchli manbalardan olingan boʻlishi lozim. Maʼruza matni grammatik jihatdan toʻgʻri tuzilgan boʻlishi adabiy til meʼyorlariga rioya qilish, gʻaliz jummlalar, har xil jargon soʻzlar yoki shevaga xos jummlardan foydalanmaslik maqsadga muvofiq.

Ma'ruzachi ma'ruza matnini aniq reja asosida tuzishi kerak. Aks holda notiq mavzuni ochib bera olmaydi. Shu bilan birga notiq o'zi yondoshayotgan masalani batafsil yoritmog'i kerak.

Ma'ruzalarning taxminiy rejasi yoritilishi lozim bo'lgan muammoning tabiatidan kelib chiqib tuziladi. Ammo ko'pincha ma'ruzalar quyidagi qismlardan iborat bo'ladi:

- Maqsadni bayon etish (kirish);
- Muammoni asoslash (aniq raqamlar va dalillar keltirish orqali sabab hamda oqibatlar tahlili);
- Muammoni hal etish yo'llarini ko'rsatish;
- Tinglovchilarni muammoni hal etishga da'vat qilish.

NOTIQLIK VA NUTQ SO'ZLASH ODOBI

Nutq madaniyati va notiqlik odobi kishining yuksak madaniyati xususan, fikrlash darajasi, tilga bo'lgan munosabati, odamlarga munosabati, muomalasi, odob-axloqi, bilim darajasini namoyon etadi.

Shuning uchun notiqlikka qo'yiladigan ma'lum talablar mavjud. Bu ayniqsa, nutq odobi, muomala madaniyati bilan chambarchas bog'liq holda vujudga keladi:

- 1) boshqalarning fikrlarini e'tibor bilan tinglash;
- 2) birovning fikrini bo'lmaslik, noo'rin luqmalar tashlamaslik;
- 3) so'zlashib turgan odamlar suhbatiga noo'rin, uzrsiz aralashmaslik;
- 4) tushunmagan, to'la anglamagan holda fikr bildirishga shoshilish;
- 5) vaziyatni hisobga olmagan holda gapirish, qattiq yoki o'ta sekin so'zlash;
- 6) o'zidan kattalar, bilimdon odamlar oldida amalni ro'kach qilgan holda so'zlash yoki "bilimdonlik" qilish;
- 7) ezmalik yoki o'jarlik bilan fikrni ma'qullatishga harakat qilish, qayerda so'zlayotganligini, qachon so'zlayotganligini esdan chiqarmaslik;

8) so'zlarni noo'rin, nomuvofiq ma'nolarda qo'llash, matnda mazmun va ma'nolarning, tushunchalarining qorishtirilishiga ehtiyot bo'lish, fikrning izchil rivojlanib borishini esdan chiqarib qo'yimaslik hamda bema'ni va tuturiqsiz fikrlashdan saqlanish;

9) faktlarga asoslanishni esdan chiqarib qo'yimaslik, asosiy maqsaddan chalg'ib ketmaslik, hammaning asosiy diqqatini ma'lum mavzu, ma'lum bir masala atrofiga tortish;

10) vaziyat taqozosiga ko'ra xushyorlik va ephillik bilan suhbat usulini o'zgartirishga erishish.

Nutq madaniyati va notiqlik san'atini egallashda mustaqil shug'ullanishning va taqlidning ahamiyati juda katta bo'lib, doimiy mashqlar orqali takomillashtirilib boriladigan jarayondir. Notiq doimo o'z kamchiliklari ustida ishlashi lozim. Notiq auditoriyadagi mavjud vaziyat va munosabatga qarab so'z tanlashi lozim. O'z nutqida qo'llangan so'zlarning ma'no yukiga qarab baland va past ovozlarda tinglovchilarga yetkazishi lozim. Ovoz tembrining o'zgarib turishi ham tinglovchilarning fikrini turli chalg'ituvchi hayollardan asl mavzuga qaytarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuning uchun, gapirayotganda quyidagilarga e'tibor beriladi:

birinchi navbatda, asosiy so'zlarga urg'u berish va ularga mavhum bo'lmagan so'zlarni bo'ysundiring;

ikkinchi navbatda, tovush ohangini o'zgartiring;

uchinchi navbatda, nutq tezligini o'zgartiring;

to'rtinchi navbatda, muhim fikrlardan oldin ham keyin ham to'xtab oling.

Suhbatdosh yoki tinglovchilar bilan uchrashadigan bo'lsangiz iloji boricha kishilar diqqatini o'ziga tortuvchi yaltiroq kiyimlar, zargarlik buyumlaridan foydalanmaslik zarur, ammo shinam va bashang kiyining aksariyat kishilar insonning kiyimiga qarab baho berishadi. Ayniqsa, siz bilan birinchi to'qnash kelganda. Agar siz shalviragan, shim yoki dazmollanmagan ko'ylakda, iflos poyabzal, taralmagan soch, cho'ntaklardan qalam va ruchkalar chiqib tursa, ayol kishining esa sumkasidan har xil narsalar qalashib tursa, uni kuzatgan auditoriya hali gapirmasdan turib undan kamchilik topadi. Inson tabiatiga xos bo'lgan